



# Jahon iqtisodiyoti va diplomiya universiteti

---

## BANDLIK AMALIYOTIDA TENG HUQUQLAR AUTSORSINGI

Toshkent-2024

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining  
“Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi”**

**N I Z O M I**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi Nizomi (Keyingi o‘rinlarda – Nizom) Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (Keyingi o‘rinlarda – Universitet / JIDU) xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ishga jalg qilish (outsourcing) sohasidagi hamda fuqarolik huquqiy shartnomalarga muvofiq ishga jalg etilgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Fuqarolik huquqiy shartnoma (outsourcing) tomonlari bu – “buyurtmachi”, “ijrochi” va “uchinchi shaxslar” hisoblanib, ular o‘rtasidagi munosabatlar fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq tartibga solinadi.

1.3. Mazkur shartnomaga ko‘ra, tomonlarning barcha majburiyatları – ijrochining buyurtmachiga (JIDU) muayyan xizmatlarni ko‘rsatishi yoki ma’lum ishlarni bajarishidan iborat bo‘ladi.

1.4. Ushbu nizom autsorsing amaliyoti jarayonida barcha xodimlarning teng huquqlarini himoya qilish va kafolatlashni maqsad qiladi.

1.5. Nizom universitet uchun ish jarayonlarini uchinchi tomonlarga autsorsing qilishda barcha xodimlar uchun teng sharoitlar yaratishni, diskriminatsiyadan himoya qilishni va teng imkoniyatlarni ta’minlashni nazarda tutadi.

1.6. Mazkur Nizom ishga yollash, ishlovchilarni boshqarish, ish haqi, o‘quv va rivojlantirish imkoniyatlari, hamda har qanday ish sharoitiga doir sohalarda xodimlar uchun teng huquqlarni kafolatlaydi.

1.7. Fuqarolik huquqiy shartnoma (outsourcing) asosida ishga jalg etilgan shaxslar bilan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.

**II. Fuqarolik huquqiy shartnoma (outsourcing) mazmuni**

2.1. Shartnoma majburiy tartibda quyidagi shartlarni o‘zi ichiga olishi kerak:

– shartnomaning barcha tomonlarining (yuridik yoki jismoniy shaxslar) ismlari, manzillari, yuridik holati va boshqa muhim ma’lumotlari ko‘rsatilishi kerak;

- shartnomaning maqsadi aniq ko‘rsatilishi lozim (oldi-sotdi, ijara, xizmat ko‘rsatish yoki ish bajarish kabi maqsadlar);
- ijrochiga qo‘yiladigan aniq talablar;
- ko‘rsatilgan xizmatlar uchun JIDU tomonidan ijrochiga to‘lanishi kerak bo‘lgan summa;
- bajarilgan ishni qabul qilish-topshirish shartlari;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari batafsil bayon etililishi lozim;
- fuqarolik huquqiy munosabatlarda tomonlarning teng huquqliligi va kamsitishning har qanday turlariga yo‘l qo‘ymaslik shartlari;
- tomonlarning shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari;
- shartnomani muddatidan oldin bekor qilish holatlari va oqibatlari.

2.2. Fuqarolik huquqiy shartnomada barcha bajariladigan ishlar va xizmatlar haqida ma’lumotlar to‘liq va aniq ko‘rsatiladi.

### **III. Teng huquqlarni kafolatlash prinsiplari**

#### **3.1. Diskriminatsiyani man etish**

3.1.1. Universitet har bir xodim va nomzodga faoliyat yuritishi uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratib beradi. Har qanday shakldagi kamsitish (diskriminatsiya) ta’qilanganadi, jumladan, jinsi, etnik kelib chiqishi, yoshi, millati, e’tiqodi, nogironlik holati, irqi, oilaviy holati yoki boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib huquq va erkinliklarini cheklash va farqlash qat’iyan man etiladi.

3.1.2. Faoliyat jarayonida hech bir xodim jinsiy, irqiy, milliy, diniy yoki boshqa shaxsiy belgilarga qarab kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.1.3. Universitet imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarga moslashgan ish sharoitlarini yaratish choralarini ko‘radi. Bunday xodimlar uchun ish joyida qulaylik va imkoniyatlarni ta’milanadi va ishga joylashishda yoki faoliyat davomida ular uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

3.1.4. Ish muhitida hamma xodimlar teng himoya qilinadi va kamsitishga (diskriminatsiyaga) yo‘l qo‘yilmasligi uchun psixologik xavfsizlik darajasini saqlash choralarini ko‘riladi. Shuningdek, barcha xodimlar O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonuniga muvofiq murojaatlar yo‘llash, shikoyat qilish, o‘z huquqlarini himoya qilish va univeristet tomonidan ko‘rsatilgan ko‘mak olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

### **3.2. Xalqaro va milliy standartlarga muvofiqlik**

3.2.1. Universitet fuqarolik huquqiy shartnoma asosida ishga jalg etilgan shaxslar huquqlarini O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qiligan qator xalqaro huquqiy hujjatlar va shartnomalar, jumladan BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan standartlar, hamda ayollar va nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus xalqaro hujjatlarga qat’iy rioya qiladi.

3.2.2. Universitet ish sharoitlarini ta’minlash va xodimlar huquqlarini himoya qilishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga to‘liq rioya etgan holda faoliyat yuritadi.

3.2.3. Universitet o‘zining inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tartib qoidalari haqida muntazam ishga jalg etilganlarni xabardorlik etib boradi, inson huquqlariga doir treninglar, mahort darslari, ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazib boradi va zarur hollarda tashkilot hamda muassalar bilan bilan hamkorlik qiladi.

3.2.4. Universitet shartnoma shartlariga ko‘ra autsorsing jarayoniga jalg etiladigan har bir tomon, jumladan uchinchi tomonlar, pudratchilar va xizmat ko‘rsatuvchilarni ham xalqaro va milliy qonunchilik talablariga qat’iy amal qilish majburiyatlarini ham inobatga olgan holda hamkorlik masalalarini amalgalashdi. Tomonlar univeristet bilan shartnoma imzolashdan avval mazkur qoidalarga rioya qilishga rozilik bildiradilar.

### **3.3. Teng imkoniyatlar ta’minlash**

3.3.1. Ishga qabul qilish jarayonida har bir nomzod uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Universitet har bir nomzodni ularning malakasi, bilim va ko‘nikmalariga asosan baholaydi va biror bir huquqlarni cheklagan holda qaror qabul qilish ta’qilqanadi.

3.3.2. Universitet barcha ishga jalg etilganlar uchun ta’lim va rivojlanish imkoniyatlarini teng huquqlilik asosida taqdim etadi. Bunda autsorsing asosida ishga jalg etilgan shaxslar asosiy xodimlar bilan bir xil imkoniyatlardan foydalana oladi.

3.3.3. Universitet har bir ishga jalg etilgan shaxslarga ularning xizmat ko‘rsatish darajasi, malakasi va ish ko‘rsatkichlariga muvofiq adolatli ish haqi va sharoitlarni kafolatlaydi.

## **IV. Ishga jalg etish tartibi**

### **4.1. Ochiqlik va teng imkoniyatlarni ta’minlash**

4.1.1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) ishga qabul qilish jarayonida barcha nomzodlar uchun teng imkoniyat va ochiqlikni ta’minlaydi. Universitet tomonidan ish o‘rinlari haqida rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali e’lonlar beriladi.

4.1.2. Ishga jalg etish tanlov asosida, suhbat asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

## **V. Xodimlarning teng huquqlari va imkoniyatlari**

### **5.1. Ish sharoitlari**

5.1.1. JIDU xodimlarining, shu jumladan autsorsing asosida ishlovchi xodimlarning ish joyida xavfsiz va gigienik talablar to‘liq bajarilgan sharoitda ishlashini ta’minlaydi. Barcha xodimlarga ish joyida qulay va sog‘lom muhit yaratish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish universitetning ustuvor vazifalaridan biridir.

5.1.2. JIDUDA autsorsing asosida jalg qilingan xodimlarga ish muhitining samaradorligini ta’minlash maqsadida universitet imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda barcha zaruriy jihozlar, texnika vositalari va anjomlar bilan ta’minlaydi.

### **5.2. Ish haqi va imtiyozlar**

5.2.1. JIDU autsorsing asosida ishlovchi shaxslarga universitetda bajarilayotgan ishning miqdori (hajmi) va murakkabligiga qarab, barcha xodimlar uchunadolatli va maqsadli maosh to‘lanadi.

5.2.2. Universitet autsorsing xodimlariga barcha imtiyozlarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq taqdim etadi. Ushbu imtiyozlar universitetning barcha xodimlari uchun ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

### **6.1. Nizomning amal qilish doirasi va monitoring**

6.1.1. JIDUDA ushbu nizomda ko‘zda tutilgan qoidalar va tamoyillarga doimiy ravishda rioya etiladi. Universitetda ishga jalg etilganlar huquqlarini himoya qilish teng huquqlari va imkoniyatlariga oid nizomning bajarilishiga mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

6.1.2. JIDU barcha xodimlariga, shu jumladan autsorsing asosida ishlovchilariga ham, ushbu nizomda belgilangan huquqlarning buzilishi yuzasidan shikoyat arizalarini berish imkoniyatini taqdim etadi. Universitet tomonidan har bir shikoyat va murojaatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqadolatli tarzda ko‘rib chiqiladi, xodimlarning huquqlari tiklanishiga har tomonlama ko‘maklashiladi.

## **6.2. O‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish**

6.2.1. JIDUDA xodimlarning teng huquqlari va imkoniyatlarini kafolatlash choralarini yanada rivojlantirish va zamон talablariga moslashtirish uchun ushbu nizomga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin. O‘zgartirish va qo‘srimchalar universitetning qarori asosida amalga oshiriladi.

6.2.2. Universitet ushbu nizomga o‘zgartirishlar kiritish jarayonida xodimlar va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini e’tiborga oladi.

## **6.3. Nizom kuchga kirishi va amal qilish muddatlari**

6.3.1. Ushbu nizom JIDU Akademik kengashida tasdiqlanishidan keyin rasmiy kuchga kiradi. Barcha xodimlar ushbu nizomga muvofiq ish yuritishlari lozim.

6.3.2. Nizom kuchga kirishi bilan JIDUDA ishga jalb etilgan shaxslar, shu jumladan autsorsing asosida yollangan xodimlar uchun ham doimiy ravishda amal qiladi. Nizomning har qanday o‘zgartirish yoki yangilanishlari haqida barcha xodimlar xabardor etiladi.